

«Humans | Yandex» Aksiyasi shartlari

«Humans | Yandex» Aksiyasi (keyingi o'rirlarda "Aksiya" deb yuritiladi) «Humans» Mas'uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 2 B uy, STIR 306624856 (Provayder), tomonidan Yandex bilan hamkorlikda o'tkazilib, yangi abonentlarni jaib qilish, Provayder tomonidan o'tkaziladigan aloqa xizmatlariga bo'lgan qiziqishni oshirishga qaratilgan.

1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Kodni faollashtirish — Ilovada yoki <https://plus.yandex.uz/giftg> sahifasida maxsus maydonchaga kodni kiritish bilan Ishtirokchi tomonidan Obuna doirasida Kontentdan foydalanishga kirish imkonini (foyanish huquqi)ni taqdim etish.

1.2. Obuna bo'lish uchun kod (Kod) — noyob harfli/raqamli/kombinatsiyalangan kod, undan foydalanishda Ishtirokchiga Obuna doirasida Obunachilik davrida Kontentdan foydalanish imkonini beradi. Koddan faqat bir marta foydalanish mumkin. Ishtirokchi kodni 31.08.2021-yildan kechiktirmay faollashtirishi kerak.

1.3. Shaxsiy kabinet — Ishtirokchi haqida ma'lumot bo'lgan, hamda Ishtirokchi tomonidan Obunadan foydalanish hamda Ishtirokchi Yandex (uning affilyatsiyalangan shaxslar)ning servislariga login va paroldan foydalangan holda Yandexning yuqorida ko'rsatilgan servislaridan foydalanishga bog'liq Yandex (uning affilyatsiyalangan shaxslar)ning servislarida (shu jumladan, mobil ilovalarida)gi Ishtirokchining qaydnomasi.

1.4. Obunachilik davri — 90 kunga teng muddat, ushbu muddat ichida Ishtirokchiga Obunachilik doirasida Kontentga kirish (foydalanish huquqi) taqdim etiladi.

1.5. Aksiyaning o'tkazilish davri: 01.07.2021-yildan 31.07.2021-yilgacha.

1.6. Yandex Plus obunasi (Obuna) — https://yandex.ru/legal/yandex_plus_conditions/ sahifalarida keltirilgan amaldagi sharhining tavsifi «Условия подписки на Яндекс Плюс» hujjatida qayd etilgan shartlarga muvofiq quyidagi sahifada keltirilgan tavsif bo'yicha Ishtirokchiga obunachilik Davrida masofadan turib audio va audio-vizual asarlarni "Internet" tarmog'i orqali tomosha qilish va/yoki tinglash imkonini Obunachilik davrida to'lov asosida taqdim etish (keyingi o'rirlarda — "Kontent"): https://yandex.ru/legal/yandex_plus_privilege_list/index.html.

1.7. Yandexning sayti — <https://plus.yandex.uz/gift>

1.8. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasi.

1.9. Aksiya Ishtirokchilari (Ishtirokchi) — Qoidalarning 2.3. bandida belgilangan shartlarga mos kelgan hamda Aksiyada ishtirok etish vaqtigacha amaldagi Yandex Plus Obunasiga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar.

1.10. **Yandex** — Provayder hamkor, "Яндекс.Медиасервисы" MCHJ, manzil — 115035, Rossiya, Moskva sh., Sadovnicheskaya k., 82-uy, 2-bino, 10A05-xona.

2. Aksiya tavsifi

2.1. Aksiya ishtirokchisi Obuna bo'lish uchun Kod olishi mumkin, u Obunachilik davrida Obunachilik doirasida Kontentga kirish huquqini beradi. Koddan faqat bir marta foydalanish mumkin.

2.2. Kodni SMS-xabar orqali olish mumkin. 30 kunlik hisob-kitob davriga beriladigan “Cheksiz internet” tarifiga ulanganidan keyin xabar orqali kod keladi. Ya’ni, Ishtirokchilar Aksiya boshlanishi paytida mazkur paketni ulagan bo’lsalar, avtomatik ravishda SMS orqali promokodni oladilar.

2.3. Quyidagi shartlarning hammasiga birdaniga amal qilgan Ishtirokchilar kodni olishlari mumkin:

– Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etishi paytida Provayder bilan aloqa xizmatlarini ko’rsatish Shartnomasini tuzgan hamda u har qanday sabablarga ko’ra bekor qilinmagan, aloqa xizmatlarining taqdim etilishi to’xtatilmagan;

– Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etishi paytida 30 kunlik “Cheksiz internet” tarif paketini ulagan;

2.4. Koddan foydalanish uchun Aksiya Ishtirokchisi Aksiya o’tkazilishi davrida <https://plus.yandex.uz/gift> sahifasiga o’tishi, Shaxsiy kabinetda avtorizatsiyadan o’tishi (agar mavjud bo’lmasa, <https://passport.yandex.uz/> da ro’yxatdan o’tishi va Yandex Saytida kodni kiritishi) kerak. Kodni faqat faol Obunaga ega bo’Imagan, shu jumladan boshqa obunalar doirasida Obunaga ega bo’Imagan Ishtirokchilar faollashtirishlari mumkin. Kodni Faollashtirish uchun bank kartasining ma’lumotlarini kiritish kerak. Ishtirokchi Kodni faollashtirar ekan, u to’liq va so’zsiz https://yandex.ru/legal/yandex_plus_conditions/ havolasida keltirilgan “Yandex Plusga obuna bo’lish Sharltari” («Условия подписки на Яндекс Плюс»)ga rozilik bildiradi.

2.5. Koddan faqat Yandex ma’lumotlariga ko’ra Internet tarmog’ida O’zbekiston Respublikasiga mansub mobil qurilma yoki kompyuter (yoki proksi-server)ning IP-manzillari orqali qo’llanilishi mumkin.

2.6. Yandex tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlar hajmi va sifatiga Provayder javobgarlikni o’z zimmasiga olmaydi. Mazkur bandda ko’rsatilgan barcha savollar yuzasidan Aksiya Ishtirokchisi to’g’ridan-to’g’ri Yandexga murojaat qilishi mumkin. Mazkur Qoidalarga muvofiq Provayder Ishtirokchiga Kodni taqdim etish bo’yicha mas’uliyatni o’z zimmasiga oladi.

2.7. Aksiya doirasida Ishtirokchiga berilgan Kodlar bilan amalga oshirilgan har qanday firibgarlik va/yoki suiste’molchilik Kod bekor qilinishga olib keladi. Agar Ishtirokchi tomonidan Aksiyada ishtirok etish paytida mazkur Qoidalalar buzilganligi yoki nohaq, qasddan, firibgarlik yo’li bilan, noqonuniy yoki, vijdon yuzasidan amalga oshirilmagan harakatlar aniqlansa, Provayder o’z ixtiyoriga ko’ra Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etish yoki Koddan foydalanish huquqini bekor qilish yoki qaytib olish huquqiga ega.

3. Muhim shartlar

3.1. Obuna bo’lish Davri tugaganidan so’ng Yandex avtomatik ravishda Obunani bekor qiladi va uning narxi oyiga 15 999 so’mni tashkil qiladi.

Agar Ishtirokchi to’lov evaziga Obunani uzaytirishni xohlamasa, https://yandex.ru/legal/yandex_plus_conditions/ sahifasida joylashtirilgan “Yandex Plusga obuna bo’lish sharltari” hujjatiga muvofiq Obuna Davri tugashigacha Shaxsiy kabinetda Obuna uzaytirilishni bekor qilishi kerak.

3.2. Obuna bo’lish uchun Kodlar miqdori cheklangan.

3.3. Aksiya Qoidalarning 1.4. bandida belgilangan Aksiyaning o’tkazilish Davri tugagunicha amal qiladi.

4. Yakuniy qoidalalar

4.1. Ushbu Qoidalalar Provayderning Saytida chop etilgan vaqtidan boshlab kuchga kiradi. Provayder bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarga o’zgarishlar kiritishga yoki Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali oldindan ma’lum qilgan holda Aksiyani bekor qilishga haqli. Ma’lum qilingan sana – Saytda tegishli ma’lumot chop etilgan kun. Saytda tegishli ma’lumot chop etilgan vaqtidan boshlab Qoidalalar o’zgartirilgan, Aksiya bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Kodni qabul qilish va Qoidalarning 2.4. bo’limida sanab o’tilgan harakatlarning Mijoz tomonidan bajarilishi jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta hisoblanuvchi Qoidalalar bilan to’liq va so’zsiz rozilikni anglatadi.

3.3. Hukumatning tegishli organlari tomonidan tegishli qaror qabul qilinsa yoki tarmoq hujumi, Provayder yoki Yandex tizimlarining pand berishi sababli Aksiya muddatidan oldin to'xtatilishi mumkin. Bunday holat fors-major holati hisoblanadi, va bunday vaziyatlar natijasida keltirilgan har qanday zarar yoki shikoyat uchun Provayder yoki Yandex mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi. Agar kompyuter tarmog'i (texnik sabablar) bilan bog'liq sabablarga ko'ra Aksiya amal qilishi to'xtatilsa, Provayder yoki Yandex har qanday yetkazilgan ziyon uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi.